



KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYA MUAMMOSINING PSIXOLOGIK ADABIYOTLARDA YORITILISHI

Ro'zmetova Mehriyo Nuraddin qizi

Buxoro xalqaro universiteti o'qituvchisi

e-mail: ruzmetovamexriyo.01@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimi pedagoglarining psixologik tayyorgarligi shaxsning individual va kasbiy rivojlanishi, kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalar, shaxslararo aloqalarning samaradorligi hamda professional layoqatni belgilovchi omillardan iborat yaxlit tizimni tashkil qiladi. Shu bois amaliy tadqiqotlardan oldin tarbiyachilarning kasbiy faoliyati samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan kommunikativ kompetentlikni nazariy jihatdan yoritib olish lozim.

Аннотация: В данной статье психологическая подготовка воспитателей дошкольных учреждений рассматривается как целостная система, состоящая из факторов, определяющих индивидуальное и профессиональное развитие личности, квалификацию и умения, необходимые для профессиональной деятельности, эффективность межличностных отношений и профессиональную компетентность. Поэтому перед практическими исследованиями необходимо теоретически изучить коммуникативную компетентность, которая напрямую влияет на эффективность профессиональной деятельности воспитателей.

Abstract: In this article, the psychological preparation of preschool educators constitutes a holistic system consisting of factors determining the individual and professional development of the individual, the qualifications and skills necessary for professional activity, the effectiveness of interpersonal relationships, and professional competence. Therefore, before practical research, it is necessary to



theoretically examine communicative competence, which directly affects the effectiveness of educators' professional activities.

Kalit soʻzlar: kommunikatsiya, muomala, psixologik talqin, soʻz taʼsiri, oʻsmir psixologiyasi

Ключевые слова: коммуникация, поведение, психологическая интерпретация, влияние слова, подростковая психология.

Keywords: communication, behavior, psychological interpretation, word influence, adolescent psychology

KIRISH

Taʼlim sohasida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar jarayonida bolalarni maktabga tayyorlashning pedagogik va psixologik jihatlari tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Amaliy tajribalar shuni koʻrsatadiki, bolalarning maktab hayotiga moslashuvini yengillashtirishda zamonaviy metodikalar hamda shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuvlarni qoʻllash ijobiy natijalar beradi. Shu bilan birga, bolalarni har tomonlama yetuklikka olib boruvchi va optimal shaklda tayyorlovchi jarayonda maktabgacha taʼlim muassasasi tarbiyachilarining oʻrni beqiyosdir. Demak, tarbiyachilarning nazariy va amaliy bilimlarini, psixologik tayyorgarligini mustahkamlash, ularni innovatsion metodlar bilan qurollantirish, taʼlim-tarbiya jarayonida integratsiyaga erishish, oila bilan maktabgacha taʼlim tashkiloti oʻrtasida hamkorlikni yoʻlga qoʻyish, shuningdek, tarbiyachilarning kasbiy kompetentligiga taʼsir koʻrsatuvchi psixologik omillarni chuqur rivojlantirish bugungi kunda dolzarb muammo boʻlib qolmoqda.

Mazkur muammoni oldini olish va yechimini topishda asosiy vazifalardan biri maktabgacha taʼlim muassasasi tarbiyachilarining nafaqat kasbiy, balki psixologik tayyorgarligini ham tizimli ravishda tashkil etishdir. Shu sababli, mamlakatimiz uzluksiz taʼlim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadlaridan



biri – kadrlar tayyorlash sifatini xalqaro standartlarga moslashtirishdan iboratdir. Bugungi davr talabi sifatida jamiyat oldiga qo'yilayotgan vazifa tarbiyachidan faqat tor mutaxassislik bo'yicha bilim emas, balki kelajakni to'g'ri prognoz qila olish, oqilona qaror qabul qilish, o'z-o'zini rivojlantirishga ehtiyoj sezish, innovatsion g'oya va tafakkurga ega bo'lishni ham taqozo etmoqda. Chunki ilmi, ruhan barqaror, jismonan baquvvat insonlarga taraqquiyot yo'lida yetakchi bo'la oladilar.

Har qanday muloqotda, yaxshi yoki yomon odamlar bilan bo'lishidan qat'i nazar, o'ziga xos odob qoidalariga amal qilish zarur. Islom dini salomlashish va ruxsat so'rash madaniyatiga ham katta e'tibor beradi. «Nur» surasining 27–28-oyatlarida bu borada aniq tavsiyalar berilib, ularga rioya etish inson ma'naviy yetukligidan dalolat ekanligi qayd etiladi. Shu bilan birga, «Niso» surasining 86-oyatida «Qachon sizlarga salom berilsa, sizlar undan ham chiroyliroq qilib alik olinglar yoki hech bo'lmaganda o'sha iborani qaytaringlar» deb amr qilingan [116]. Demak, islomiy manbalarda muomala odobi qadim-qadimdan dolzarb masala sifatida ko'rilgan, insonlar o'rtasida do'stona munosabat va hamkorlikni oliy qadriyat sifatida targ'ib etilgan.

Imom al-Buxoriy inson fazilatlarini borasidagi qarashlarida jaholatni odamzot uchun halokatli fojia sifatida baholagan. U kishilarni rostgo'ylikka, va'daga vafo qilishga undaydi, munofiq kishining uch belgisi – yolg'on gapirish, va'dani buzish va omonatga xiyonat qilish ekanini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, mo'min-musulmonni haqorat qilish og'ir gunoh, u bilan janjallashish esa kufriklikka teng. Buxoriy insonning haqiqiy kuchi jismoniy pahlavonlikda emas, balki g'azab chog'ida o'zini tuta bilishda namoyon bo'lishini aytadi. Shuningdek, baland ovoz bilan o'rinsiz kulish boshqalarga ozor yetkazuvchi odat sifatida qoralanadi. Xalq muhabbatiga sazovor bo'lish va obro' orttirish esa yaxshi xulq-atvorning belgisi sifatida baholanadi [49].



TADQIQOT METODOLOGIYASI VA ADABIYOTLAR TAHLILI

«Sogʻlom tanda – sogʻ aql» degan xalq maqolini qadrlagan holda, alloma yoshlarni sogʻliqni asrashga, vaqtni behuda oʻtkazmaslikka daʼvat qiladi. U shunday degan: «Ikki narsa bor, koʻpchilik ularning qadriga yetmaydi: biri – salomatlik, ikkinchisi – boʻsh vaqt» [1]. Demak, insonning emosional holatini boshqarishda til va nutq beqiyos ahamiyatga ega boʻlib, sogʻlom psixologik muhit yaratishda taʼnashnomdan tiyilish asosiy mezonlardan biri ekanligi koʻrsatib berilgan.

Imom at-Termiziyning hadislar toʻplamida insonning komillikka erishishi bilan bogʻliq rivoyatlar alohida oʻrin tutadi. Masalan, unda shunday deyiladi:

«Haqiqiy sabrli musulmon – musibat yuz berganda bardoshli boʻla oladigan kimsadir», «Vafot etgan insonning faqat yaxshi fazilatlarini eslang, oʻlik haqida yomon soʻz gapirilmasin», «Chin moʻmin – odobi goʻzal boʻlgan va oʻz ayoliga mehribonlik koʻrsatgan kishi hisoblanadi» [2]. Bu hadislar shuni koʻrsatadiki, komil inson boshqalar bilan muloqot jarayonida soʻzda ehtiyotkor boʻlishi va yomon iboralardan tiyilishi zarur.

Adib Ahmadning fikrlarini Alisher Navoiy ham oʻz asarlarida qisman takrorlaydi. Adibning taʼkidlashicha, inson boshiga keladigan koʻplab sinov va quvonchlar til sababli yuz beradi, kimdir undan foyda topadi, kimdir esa afsus chekadi. Ahmoq odamning tili oʻziga ham, boshqalarga ham zarar yetkazadi, koʻplab qon toʻkilishlar ham soʻz tufayli sodir boʻladi. Adib Ahmad ortiqcha gapirishni, yolgʻon soʻzlashni keskin qoralar ekan, toʻgʻri va qisqa soʻzlashni maʼqul koʻradi. Uning qarashlarida sir saqlash ham muhim oʻrin egallaydi, hattoki yaqin doʻstdan ham ehtiyot boʻlish lozimligi uqtiriladi. Bu ogohlantirishlar zamon xavflarini eslatib turar edi [3].

Darhaqiqat, adibning mazkur mulohazalari shuni koʻrsatadiki, inson uchun eng katta dushman ham, baxtsiz hodisalarning asosiy manbai ham uning tilidir.



Abu Nasr Forobiy esa ta'lim va tarbiya masalasiga alohida urg'u beradi. U shunday deydi: «Ta'lim – xalqlar va shahar ahli o'rtasida nazariy fazilatlarni birlashtirish jarayoni, tarbiya esa shu xalqlarning tug'ma qobiliyatlari bilan kasb-hunar va amaliy ko'nikmalarni uyg'unlashtirishdir» [4]. Uning ta'kidlashicha, ta'lim so'z va o'rgatish orqali amalga oshirilsa, tarbiya bevosita tajriba va amaliymashqlar orqali shakllanadi [5]

MUHOKAMA

Bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar zamonaviy, yuqori malakali, tashabbuskor, raqobatbardosh, jismonan sog'lom va ma'naviy jihatdan yetuk shaxslarni tarbiyalashni maqsad qilib qo'yimoqda. Bu borada «2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi»da belgilangan ustuvor vazifalar, jumladan, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish, yoshlar uchun sifatli ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish, ta'limning barcha bosqichlarida mukammal bilim olish sharoitlarini yaratish hamda inklyuziv ta'lim imkoniyatlarini ta'minlashga oid yo'nalishlar alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ta'lim jarayonida tarbiyachilarning muloqot kompetentligini oshirish, yuksak bilimli va intellektual avlodni shakllantirish, raqobatbardosh ilmiy kadrlar zaxirasini yaratish masalalari ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

Bugungi davrda barcha fanlarni o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv keng qo'llanilmoqda. Endilikda bo'lajak tarbiyachilarga faqatgina nazariy bilim, ko'nikma va malakalarni berish kifoya emas, balki ularni real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatini shakllantirish ham zarurdir. Oliy ta'lim muassasalarining asosiy vazifasi kommunikativ kompetensiyaga ega, raqobatbardosh pedagoglarni tayyorlashdir. Shu sababli, innovatsion texnologiyalarni bilish va amaliyotda qo'llay olish kelajakdagi pedagoglarga qo'yiladigan eng muhim talablar sirasiga kiradi. Kompetensiyaviy yondashuv shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatda egallangan bilim va ko'nikmalarni amalda qo'llashni

rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, u



bo'lajak tarbiyachilarda mustaqil fikrlash, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan oqilona foydalanish, ongli ravishda

kasb tanlash, sog'lom raqobat muhitida ishtirok etish va umummadaniy ko'nikmalarni shakllantirish imkonini beradi.

XULOSA

Bizning xulosamizcha, kommunikativ kompetensiyalarni o'rganishda ikki yo'nalish – psixolingvistik va sotsiopsixologik yondashuvlar alohida ahamiyat kasb etadi. Psixolingvistika nuqtai nazaridan, muloqot qobiliyatlari nutq faoliyati rivoji, tilshunoslik vositalaridan samarali foydalanish va tilning psixologik omillari orqali shakllanadi. Bunday tadqiqotlarda til va o'z-o'zini anglash o'rtasidagi bog'liqlik, tilning shaxs rivojlanishiga ta'siri muhim tahlil obyekti hisoblanadi. Sotsiopsixologik yondashuv esa kommunikativ kompetensiyani shaxsning ijtimoiy guruhdagi o'rni va o'zaro munosabatlari bilan bog'laydi. Bu esa ayniqsa kursantlar orasida ijtimoiy aloqalarning shakllanishi va taraqqiyotini chuqur anglash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al Buxoriy «Al Jomi' as– sahih». – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 2007. 4-jild.- 526 b
2. Зиёмухаммедов Б., Исмоилов Ф. Баркамол авлодни вояга етказиш сирлари. – Т.: Сано-стандарт, 2011.–72 б.
3. Маънавият юлдузлари: (Марказий Осиёлик машһур сиймолар, алломалар, адиблар)// Тўпловчи ва масъул мухаррир:М. М.Хайруллаев/.—



Тўлдирилган қайта нашр.— Т.: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашр., 2001.— 408 б.

4.Абу Наср Форобий. Фазилат, бахт-саодат ва камолот ҳақида муқаддима, таржима ва изоҳлар муаллифи: М.Қодиров: маъсул муҳаррир: А.Жалолов. – Т.: Ёзувчи, 2001. – 64 б.

5. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: А.Қодирий номидаги нашриёт, 2003. – 224 б.